Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316816

V SHO'BA - HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARIGA KIRITILGAN LOYIHALARNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION LOYIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti
nomonjonovanargiza7@gmail.com.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda, har qanday kichik korxonaning yoki firmaning barqaror rivojlanishi hamda yuqori iqtisodiy foydaga erishayotganligi uning investitsiya samaradorligi bilan bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplik sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalap hajmining optishi, o'z navbatida sohada ishlab chiqapish hajmining optishiga va aholi bandligini ta'minlashga, uning bapqapop rivojlanishi hamda tapkibiy o'zgapishlapning jadallashuviga sabab bo'ladi. Buning provard natijasi mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz" deya ta'kidlagan [1].

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda iqtisodiyotda investitsiyalarning o'rni, ulardan foydalanish, samaradorligini oshirish, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish, taxlil qilish va ko'rsatkichlarini baholash yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatlidir. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplikda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy tarafdan talqin qilish muhim hisoblanadi. Chunki, har qanday iqtisodiy jarayonning provard natijasi, ijtioiy samaradorlikka erishish bilan bog'liqdir. Ya'ni, har qanday iqtisodiy samaradorlik negizida ijtimoiy naflik bo'lishi zarur. Shu bois ilmiy tadqiqotlarda bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda kichik biznes sohasida ham investitsiyaga bo'lgan talab, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag'larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag'idan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish imoniyatidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda barqarorligi ta'minlashda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy

Published: 17.05.2024

Cite this article: Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida investitsion loyiyalar samaradorligini oshirish. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316816

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar moliyalashtirish tajribalarini o‘rganish takomillashtirib borish va ular amaliyotidagi ijobiy yutuqlardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog‘liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda. Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyligi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladigan ta’sir yetuvchi usullar, vositalar va ta’sir kuchlariga qarab o‘zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo‘nalishi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi [2]:

- investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;
- investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq;
- menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo‘llanilgan va maqsadga yerishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishida va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda puxta o‘ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyatning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rahbatlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda investitsiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilayotganligini ushbu ko‘rsatkichlarda ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda 2017-2023 yillarda iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,6 marotabaga oshdi. Bunda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida iqtisodiyotga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi mos ravishda 5,5 va 5,2 marotabaga oshib, respublika darajasidan salmoqli darajada yuqori bo‘ldi. Shuningdek, investitsiyalar hajmi aytilgan davrda Surxondaryo viloyatida 3,8 barobar, Toshkent viloyatida 3,6 barobar, Samarqand viloyatida 3,5 barobar, Xorazm viloyatida 3,3 barobar oshdi. Bu esa mazkur hududlarda investitsyaviy faollik yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Toshkent shahri (investitsiya jami o‘sishi 2,7 barobar), Andijon viloyati (2,7 barobar), Navoiy viloyati (2,8 barobar) iqtisodiyotlarida esa investitsiyalarning jami o‘sishi respublika darajasida bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida yirik investitsiya loyihalari tugashi davriga to‘g‘ri kelgani munosabati bilan ivnsetitsiyalar o‘sishi sur’ati sekinlashgan. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,6 trln. so‘mni (dollar ekvivalentida 132,4 mln. AQSH dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2022 yilga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 0,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg‘arma hisobidan moliyalashtirilgan

investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 58,0 % ni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 88,6 % ni yoki 20,4 trln, so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 2022 yilga nisbatan 52,9 % ni, 1,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mosravishda 0,6 % punktga kamayib, 0,5 % ni tashkil etdi[3].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mukinki, mintaqalarda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda bir qator omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning rolini oshiruvchi va o‘sishning aksariyat an’anaviy omillari ta’sirini kamaytiruvchi texnologik o‘zgarishlarning yangi to‘lqini kutilmoqda. So‘nggi avlod texnologiyalarini rivojlantirishda orqada qolish mintaqalar iqtisodiy raqobatdoshligini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish hamda quyidagi vazifalarning amalga oshirish lozim:

- investorlarning qo‘yilmalarini davlat tomonidan ximoyalashni takomillashtirish hamda sug‘urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy platformalarni ishlab chiqish;
- xududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq imtiyozlarini taomillashtirish, xududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘sishida keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qaytako‘rib chiqish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda innovatsion texnologiyalarini joriy etish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.

2. J.Jamolov “O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2022 yil,yanvar-fevral.

3. B.Valiyev “O‘zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda investitsiya salohiyatini oshirish” Iqtisodiyot taraqqiyot va tahlil jurnali. Mart, 2024 yil.